



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **O‘ZBEK XALQI MENTAL TAFAKKURI SHAKLLANISHIDA ZARDO‘SHTIYLIK DININING O‘RNI**

**Kurbaniyazova Raushana Kurbanbayevna**  
Urganch davlat tibbiyot instituti, dotsent (DSc)

### **Annotatsiya**

“Avesto” yozma yodgorligi va Zardo’sht ta’limoti O’rta Osiyodagi ilk tsivilizatsiyaning tub maqsadlarini o’zida mujassamlashtiruvchi o’z davri jamiyatining mafkurasi hisoblangan. Zardo’shtiylik dini otashparastlik g’oyalari targ’ib etish bilan birga jamiyat taraqqiyotida ma’naviy-axloqiy me’yorlarning qaror topishiga, insonlarning olamga bo’lgan dunyoqarashi, fe’l atvori, mental tafakkuri shakllanishiga va takomillashishiga ta’sir ko’rsatdi. Bu ta’limotning axloqiy asosini “ezgu fikr”, “ezgu so’z”, “ezgu amal” tashkil etadi. Ayni shu tarzda insonning hayotidagi ezgu amallari xatti-harakatlari ularni yaxshilikka yetaklagan. Sharq fenomeni – yuksak axloq-odob, komillik va yetuklik, pokiza xayollar, ezguliklar va yaxshiliklar inson mohiyatini belgilaydigan omilga aylantirildi. Maqolada ayni shu paytdan inson fe’l-atvori va munosabatlarini belgilaydigan o’lchovlar Turonzamin xalqlari, jumladan o’zbeklar fe’l-atvori, xarakteri, mental xususiyatlari shakllanishiga asos bo’lganligi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Avesto, Zardo’shtiylik g’oyalari, Axura-Mazda, Axriman, qarama-qarshilik, mental tafakkur, xarakter xususiyatlari, ezgulik va yovuzlik, ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal.

## **РОЛЬ ЗОРОАСТРИЙСКОЙ РЕЛИГИИ В ФОРМИРОВАНИИ МЕНТАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА**

**Курбаниязова Раушана Курбанбаевна**  
Ургенчский государственный медицинский институт, доцент (DSc)

### **Аннотация**

Письменная запись «Авеста» и зороастрийское учение считались идеологией общества своего времени, воплощавшей основные цели ранней цивилизации Средней Азии. Зороастрийская религия, наряду с пропагандой идеи огнепоклонства, повлияла на развитие духовно-нравственных норм общества, формирование и совершенствование мировоззрения людей на мир, характер и ментальной мышления. Нравственной основой этого учения являются «добрая мысль», «доброе слово», «доброе дело». Точно так же и добрые дела жизни человека привели его к добру. Феномен Востока - высокая нравственность, совершенство и зрелость, чистые помыслы, добро и благость - превращено в фактор, определяющий сущность человека. В статье объясняется, что с этого времени измерения, определяющие человеческого поведения и отношения, стали основой формирования характера и ментальных особенностей народов Туронзамина, в том числе узбеков.

**Ключевые слова:** Авеста, зороастрийские идеи, Ахура-Мазда, Ахриман, противоречие, ментальное мышление, черты характера, добро и зло, добрая мысль, доброе слово, доброе дело.

## **THE ROLE OF THE ZOROASTRIAN RELIGION IN THE FORMATION OF MENTAL THINKING OF THE UZBEK PEOPLE**

**Kurbaniyazova Raushana Kurbanbayevna**  
Urgench State Medical Institute, Associate Professor (DSc)

### **Abstract**

The written record of the Avesta and Zoroastrian teachings were considered the social ideology of their time, embodying the fundamental goals of the early civilization of Central Asia. The Zoroastrian religion, along with its promotion of fire-worshipping ideas, influenced the development of spiritual and moral norms in society, shaping and refining people's worldviews, character, and mentality. The moral foundation of this teaching is "good thought," "good word," and "good deed." Similarly, good deeds in a person's life led them to goodness. The phenomenon of the East—high morality, perfection and maturity, pure thoughts, goodness, and kindness—was transformed into a factor defining the essence of man. The article explains that from this time on, the dimensions that determine human behavior and relationships became the basis for the formation of the character and mental characteristics of the peoples of Turonzamin, including the Uzbeks.

**Keywords:** Avesta, Zoroastrian ideas, Ahura Mazda, Ahriman, contradiction, mental thinking,

character traits, good and evil, good thought, good word, good deed.

O'zbek xalqining tasavvuridagi ilk o'zgarishlar bundan uch ming yil ilgari "Avesto" g'oyalari ta'sirida yuzaga kelgan va umuminsoniy qadriyatlar maqomini egallagan. "Avesto" ibtidoiy jamiyatning turli qabilalari va guruhleri o'rtasida mavjud bo'lgan ko'pxudolik diniga nuqta qo'yib, yakkaxudolik g'oyasini ilgari surgan. "Avesto" zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi sifatida otashparastlik g'oyalarini targ'ib etish bilan birga, jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-axloqiy me'yorlarning qaror topishiga, insonlarning olamga bo'lgan dunyoqarashi, fe'l-atvori va mentalitetining shakllanishi hamda takomillashishiga ta'sir ko'rsatgan. Yakkaxudolik orqali turli qabila va urug'larni yagona e'tiqod, yagona maslak va yagona g'oya asosida birlashtirib, umumiy manfaatlar atrofida jipslashishga da'vat etgan.

#### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Analysis of the literature on the topic)**

"Avesto" ta'limotining zardo'shtiylik g'oyalari dunyoning qator mamlakatlarida turli mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan.

Abu Rayhon Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida ilk bor etnologik tadqiqot usullari asosida "Avesto" kitobi va zardo'shtiylik dini bilan bog'liq urf-odat hamda marosimlarni nazariy jihatdan asoslashga harakat qilgan [3]. Keyinchalik, XVIII asrning 80-yillarida fransuz sharqshunosi A. Dyuperron [4] "Avesto"ni ilmiy tahlil qilish jarayonini boshlab berdi. Natijada XIX–XX asrlarda turli davlatlarda zardo'shtiylik dini va "Avesto" kitobini o'rganish borasida katta ishlar qilindi. Zardo'shtiylik dini va "Avesto" kitobining manbashunoslik hamda tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlili, ayniqsa, L.A. Lelekovning "Zamonaviy fanda Avesto" nomli monografiyasida mukammal darajada berilgan.

Rus etnografi G.P. Snesev tadqiqotlarida zardo'shtiylik dini bilan bog'liq an'ana va marosimlar batafsil ochib berilgan.

Zardo'shtiylik dinining genezisi va an'analari masalasi ingliz olimasi M. Boys [8], rus tarixchisi, arxeolog va etnograf Yu.A. Rapoport asarlarida tadqiq etilgan.

Zardo'shtiylik ta'limoti va "Avesto" haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan o'zbekistonlik olimlar B. G'ofurov, N. Mallaev, H. Homidov, A. Qayumov, Y. Jumaboev, M. Ishoqov, A. Saidov, M. Rahmonov, F. Sulaymonova, I. Jobborov, N. Jo'raev, I. Xo'jamurodov, A. Irisov, M. Qodirov, T. Mahmudov, G. Mahmudova, S. Arifxanova, S. Otamurodov, I. Karimov, T. Karim, S. Hasanovlarning asarlari, maqolalari va tadqiqotlarida atroflicha ma'lumotlar berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologik asosi sifatida ob'ektivlik, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari, analiz va sintez, tizimli tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Natija va muhokama.** O'rta Osiyo xalqlarining antik davr tarixi bu yerda yashagan barcha elatlarning davlat diniga aylangan zoroastrizm (zardo'shtiylik) diniy e'tiqodi bilan bog'liq. Zardo'shtiylik dinining asosiy asari — "Avesto" xalqimizning miloddan avvalgi II ming yillik oxirlaridan I ming yillikning keyingi asrlarigacha bo'lgan davrdagi tarixi va madaniyatini o'rganishda muhim yozma manba bo'lib xizmat qiladi. Bu din dastlab O'rta Osiyoda paydo bo'lib, keyinchalik Eron va Ozarbayjonga tarqalgan.

"Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi" [2, 10].

"Avesto" yozma yodgorligi va Zardo'sht ta'limoti O'rta Osiyodagi ilk sivilizatsiyaning tub maqsadlarini o'zida mujassamlashtiruvchi o'z davri jamiyatining mafkurasi hisoblangan. "Avesto" O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, turmush tarzi, ya'ni mental tafakkuri, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlar va ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va asosiy manba hisoblanadi.

"Zardo'shtiylik politeistik e'tiqodlardan monoteizmga o'tish davriga xos bo'lgan din bo'lib, politeistik xudolar panteonida ham u dunyoni, ham bu dunyoni yaratuvchi yagona ilohning oldinga chiqishini ifodalaydi, shu bilan birga, totemizm, animizm, shamanizm va sehrarlik kabi dinning ibtidoiy shakllarini o'zida mujassamlashtiradi" [14, 16].

Zardo'shtiylik ta'limotida ikkita qarama-qarshi kuch o'rtasidagi kurash gavdalanadi. Axuramazda yaxshilik, ezgulik, rahm-shafqat, rostgo'ylik ramzi hisoblangan. Axriman esa uning dushmani bo'lib, barcha buzg'unchilik va yomonliklarning timsoli sifatida gavdalanadi. "Zardo'shtiy falsafasiga

ko'ra, yaxshilik va yomonlik kishilarning botinida – ichki dunyosida yashaydi. Inson Axriman yoki Axuramazda tarafida bo'lishi mumkin, chunki ezgulik farishtasi uni hamisha yaxshilik qilishga, yovuzlik timsoli Axriman esa yomonlik qilishga undaydi va bu tortishuv kishi hayotining oxirgi davrlarigacha davom etadi. Agar "Avesto"ni ulug' axloq kitobi desak, mubolag'a qilgan bo'lmaymiz. Zardo'shtiylar yaxshi so'z, yaxshi amal va yaxshi andishani ilohiylashtirib, shu uch nom bilan atalgan muqaddas ruhlarga har kuni uch martadan namoz o'qir edilar. Mozdaparastlar dinida yolg'on gapirish, birovni aldash kechirib bo'lmas gunoh hisoblanadi. Zardo'sht aqidasi ko'ra, inson zulmat ichida qolib, sargardon bo'lmashligi uchun rostlik va haqiqat chirog'ini qalbida yoqishi kerak" [16, 199–200].

Ayni shu tarzda insonning hayotidagi ezgu amallari va xatti-harakatlari uni yaxshilikka yetaklagan. Sharq fenomeni – yuksak axloq-odob, komillik va yetuklik, pokiza xayollar, ezgulik va yaxshiliklar inson mohiyatini belgilaydigan omilga aylantirilgan. Ayni shu paytdan boshlab inson fe'l-atvori va munosabatlarini belgilaydigan o'lchovlar Turonzamin xalqlari, jumladan, o'zbeklar fe'l-atvori, xarakteri va mental tafakkuri shakllanishiga asos bo'ldi.

"Zardo'sht ko'pxudolikni, o'tga va tabiatning stixiyali kuchlariga sig'inishni qoralab, yakkaxudolik g'oyasini ilgari suradi. Zardo'sht talqinida Axuramazda oliy ibtido bo'lib, u hamma mavjudotlarni yaratuvchi va boshqaruvchi sifatida ezgulikni barqaror qiluvchi, odamlar qalbini munavvar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi" [11, 19]. Ilohiy qudratning yagonaligi — yakkaxudolik orqali turli qabila va urug'lar o'rtasidagi nizolar, kelishmovchiliklar hamda manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yilib, umumiy maqsadlar, umumiy g'oyalar va yagona e'tiqod atrofida birlashishga olib keldi.

Natijada kishilik jamiyatining ilk shakllanish bosqichiga asos solinib, ilk boshqaruv tizimining vujudga kelishiga va ilk davlatchilik boshqaruvining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Zardo'shtiylikning bosh g'oyasi insonning individualligi va uning olamda o'rnatilgan tartibga nisbatan mas'uliyatida ifodalanadi. Zardo'shtdan ilgari alohida shaxs va uning hayoti kam ahamiyat kasb etgan. Ilgarigi qabilaviy ideallar o'rnini egallagan individual ongning yangi esxatologik — oxiratga tomon yo'nalishi Zardo'sht diniy aqidalarining markazida turadi. Zardo'shtiylik chorvador-urug'doshlar dini emas, balki haqiqatan ham "kohinlar dini" bo'lgan, ya'ni ommaviy bo'lmagan, balki tor guruh va jamoaning ezoterik (yopiq) oqimiga xos dunyoqarash edi. "Ayrin tadqiqotchilar Zardo'sht asarlari — «Xos she'rlari», ya'ni zardo'shtiylik ta'limoti va yakka tangri g'oyasini tushunadigan kohinlar, ulamolarga mo'ljallab yozilgan, ularning asl mohiyatini oddiy xalq anglamagan, shuning uchun maxsus ulamolar otashkadalarda qiroat va ijro oldidan madhiya mohiyatini izohlab bergan, shu yo'sinda «Avesto» sharhlari paydo bo'lgan, degan xulosaga kelishgan" [17, 52].

Zardo'shtiylarning muqaddas unsurlar — yer, olov va suvga munosabati tadqiqotchilar tomonidan yetarli darajada o'rganib chiqilgan. Olov ilohiy boshlang'ich asos sifatida Axuramazdaning ajralmas xususiyatini namoyon qiladi, u butun dunyoga issiqlik taratadi va hayot baxsh etadi. Olam olov ilohi tomonidan yaratilmagan, balki olov xudo tomonidan odamlarning taqvodor hayotini qo'llab-quvvatlash uchun muqaddas hisoblangan. Shuning uchun ushbu unsurlarning sofligini saqlash va ularni poklash zardo'shtiylikning markaziy axloqiy me'yori hisoblanadi [15, 83–84]. Avestoning "Videvdod" qismida poklanishning qonunlari, qoidalari va me'yorlari ishlab chiqilgan. "Avesto"da ona zamin, tuproq, suv, bug'doy va non e'zozlanib, ularni bus-butun saqlash va ko'paytirish ko'p marotaba madh etilgan.

Zardo'shtiylik zamonida xalqning asosiy mehnat turi chorvachilik va dehqonchilikdan iborat bo'lgan. Ana shu mehnat turlari ta'sirida ko'chmanchi va chorvadorlik turmush tarziga asoslangan xalqimiz mental tafakkurida "jangovarlik ruhiyati" qaror topgan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqimizda esa "kuchli sabr-toqat" mental xususiyat sifatida shakllangan.

Qadimdan xalqimiz sun'iy sug'orma dehqonchilik natijasida yerlarni o'zlashtirgan. "Ayniqsa, miloddan avvalgi I ming yillikda Xorazmda yirik magistral kanallar qurish, har xil suv taqsimlash va suv chiqarish inshootlarini tiklash avj olgan. Inson faoliyati tufayli yovvoyi mevali daraxtlar, sabzavot va ekin turlari mahalliy sharoitga moslashgan. Jahonni zabt etgan bug'doy asli O'rta Osiyoda dunyoga kelgan" [9, 35].

Zardo'shtiylik ta'limotida insonni tuproqqa munosabat, zaminga mehr-muhabbat orqali ezgulikka da'vat etadi, bunyodkorlik va yaratuvchilikka chaqiradi hamda to'kinlik, farovonlik, rizq-u ro'z haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. El dasturxoniga baraka kirituvchi g'alla yetishtirishni yuksak qadriyat darajasiga ko'taradiki, uning mohiyatida mehnat va rohat, yaxshilik va ezgulik, farovonlik va to'kin-sochinlik tuyg'ulari yotadi [10, 46].

– Ey, olamni yaratgan Zot!

Ey, Haqiqat!

Zaminni hammadan ko‘ra baxtiyor qilgan shaxs kim?

Axura Mazda javob berdi:

– Ey, Sipiymon Zardo‘st!

U hammadan ko‘p bug‘doy, giyoh va mevali daraxt ekkan zotdir. U quruq yerlarga suv chiqargan va suvli yerlarni shudgor qilgan zotdir [5, 114].

Ey, Sipiymon Zardo‘st!

Kimda-kim zaminni chap va o‘ng qo‘l bilan, o‘ng va chap qo‘l bilan shudgor qilsa, zamin unga shunday deydi:

– Ey, mard! Ey meni chap va o‘ng qo‘l bilan, o‘ng va chap qo‘l bilan shudgor qilgan zot!

Odamlar hamisha bu yerga keladilar va non so‘raydilar. Men bu yerda hosilga kiraman, sen uchun har turli xo‘rak va mo‘l-ko‘l bug‘doy yetishtiraman [6, 115].

O‘sha davr insonlari tasavvurida tinch mehnat, insonning yaratuvchilik faoliyati tana va jondagi barcha nopok kuchlarni quvadi; faqat mehnat va oliyanob amallar orqali nur va shodlik olamini ko‘paytirish, faqat mehnat tufayli Haqiqat, Tinchlik va Davlatga erishish mumkin.

Insonning bunday yaratuvchanlik qudratini idrok etish juda qadim zamonlarda yashagan bobokalonlarimizning tafakkuri va ma‘naviy zakovatidan darak beradi.

Sharq xalqlari tasavvurida hamon yerga va nonga bo‘lgan mana shunday yuksak hurmat va ehtirom saqlanib qolgan. “Ona zamin”, “Ona Vatan” tushunchalari hamda yerda yotgan bir burda nonni avaylab, pokiza joyga olib qo‘yish buning isbotidir.

Zardo‘stiylik axloqining asosiy negizi – muqaddas ruh ahdlarini taqvo bilan bajarish va buning oqibatida hayotda osoyishtalik, huzur-halovatga erishish, oila qurish, farzandli bo‘lish, olovdan foydalanish, ekin ekish hamda mollarni ko‘paytirishdir.

Zardo‘stiylik ta‘limotining axloqiy asosini “ezgu fikr”, “ezgu so‘z”, “ezgu amal” tashkil etadi. Axura Mazda tomonidan yaratilgan insonning axloqiy qiyofasi Axrimanga qarshi kurashda inson qaysi yo‘lni tanlashiga bog‘liq deb tushunilgan. Ushbu tanlovga bog‘liq ravishda u o‘zida yo yaratuvchilik, yo buzg‘unchilik kuchini mujassam etadi. Oliyanob axloqiy fazilatlar, jismoniy kuch, tuban axloqiy qilmishlar, shuningdek, jismoniy va ma‘naviy majruhlikka qarshi turish ibtidoiy odamlar axloqining asosiy negizini tashkil etgan. “Miloddan oldingi davrlarda “Avesto”da o‘z talqinini topgan hayotiy g‘oya — “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyilining xalq tafakkuri va turmush tarzidan mustahkam o‘rin olishiga sabab bo‘ldi. Shu tariqa ezgulik va insonparvarlik ruhida yashash, bu qadriyatlarni himoya qilish xalqimiz mental tafakkuri va ma‘naviyatining muhim tarkibiy qismiga, hayotiy faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylandi” [1, 15].

Madaniy-tarixiy rivojlanish davomida quyidagi axloqiy tamoyillar qonuniylashtirilgan va tarqatilgan:

1. O‘g‘irlik qilmaslik;
2. O‘zgalar mulkiga ko‘z olaytirmaslik, tajovuz qilmaslik;
3. O‘zgalar sha‘ni, qadr-qimmatini kamsituvchi, nafsoniyatiga tegadigan qilmishlar va jinoyatlar sodir etmaslik;
4. Uy hayvonlari, itlar, qushlar va boshqa jonzotlarga ozor berish kabi xatti-harakatlar taqiqlangan.

Zardo‘stiylikda ushbu axloqiy me‘yorlar va tamoyillar ijtimoiy-falsafiy hamda huquqiy mazmunga ega bo‘lgan. Zardo‘stiylik axloqi har qanday vaziyatda ezgulik va yaratuvchilik bilan bog‘liq inson manfaatlarini ifoda etgan.

Zardo‘stiylik turmush tarzi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan M. Boysning ta‘kidlashicha, “Zardo‘st o‘zining davomchilariga o‘ziga xos ikki majburiyatni — kuniga besh vaqt ibodat qilishni va yetti buyuk bayramni nishonlashni yuklagan. Ibodatlar: quyosh chiqishi, peshin va quyosh botishi, kechani ikki qismga bo‘lib, tunning birinchi yarmida va ikkinchi yarmida bajariladigan ibodatlarini o‘z ichiga olgan. Axura Mazdaga bag‘ishlangan yetti buyuk bayram Zardo‘st o‘z diniga moslashtirgan chorvadorlar va dehqonlarning bayramlari bo‘lib: “O‘rta bahor”, “Yoz o‘rtasi”, “Don o‘rim-yig‘im bayrami”, “Yozgi yaylovlardan qoramollarning qaytishini nishonlash”, “Qish o‘rtasi”, “Navro‘z” — bahorgi teng kunlik arafasida nishonlanadigan bayramlar bo‘lgan” [8, 24–25].

Ibodattan oldin har bir dindor belbog‘ini yechib, yuz-qo‘llari va oyoqlarini sigirning tozalangan siydigi, qum va suv bilan poklagan, so‘ngra muqaddas belbog‘ini bog‘lab, “sidra”ni kiygan holda belbog‘ning old tarafini qo‘li bilan ushlab turgan. Uning nigohi taqvodorlik ramzi bo‘lgan olovga qaratilgan. Ibodat paytida taqvodor zardo‘stiy maxsus duolar o‘qish bilan birga Axura Mazdani madh etib, olqishlab, Axrimanni la‘natlagan. Butun ibodat davri bir necha minut davom etgan [7, 56–57].

S.P. Tolstov tomonidan Jonbosqal'a va Turoqqal'ada olib borilgan arxeologik kuzatuvlar natijasida shuni aniqlaganki, turar joylarning muhim belgisi bosh ko'cha bilan darvoza o'rtasida "olovxonalar"ning ajralib turishidir. Uning fikriga ko'ra, olovxonalar ona urug'chilik tuzumining so'nggi bosqichlarida, ona huquqining hali umri tugamagan bir sharoitda, erkaklarning jamiyatda hukmron mavqega ega bo'lish uchun kurash qurollaridan biri sifatida "erkak uylari" deb atalgan manzillarning qoldig'i tariqasida ibtidoiy jamoa muassasalaridan biriga borib taqaladi.

"S.P. Tolstovning bunday kuzatuv va xulosalari o'z-o'zidan hozirgi zamonda Sharq xalqlari, xususan, O'rta Osiyoda keng tarqalgan, erkaklarning jamoa-jamoa bo'lib to'planadigan, ko'ngilxushlik qiladigan, mahalla, ko'cha, shahar, hatto millat taqdiri haqida fikr almashadigan maskan — ana shu "erkak uylari", ya'ni "olovxonalar" zamonaviy choyxonalarining ibtidosi emasmikan, degan taxmin uyg'otadi" [13, 374]. "O'tashgohlardan keyinchalik o'zbek va tojiklardagi keng ommalashgan choyxonalarining vujudga kelishi va choyxonalar muayyan hudud aholisini bir mahalla sifatida uyushtiruvchilik rolini o'ynaganligini aytib o'tish kerak" [12, 30]. Bu esa Turonzamin xalqlarining jamoaviylikka asoslangan turmush va yashash tarzi, urf-odatlar hamda mental tafakkuridan dalolat beradi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** O'zbek xalqining o'ziga xos xususiyati va mental tafakkuri qaror topishida zardo'shtiylik dini va uning ta'limoti muhim rol o'ynagan. O'zbek xalqi zardo'shtiylik va undagi ma'naviy-axloqiy yetuklik hamda ruhiy pokizalik g'oyalari ta'sirida shakllandi va o'zining sof, o'ziga xos qiyofasiga ega bo'ldi. Zardo'shtiylik g'oyalari ta'sirida sug'orma dehqonchilik targ'iboti ustuvor bo'lgan xalqimizda "kuchli sabr-toqat" milliy xususiyat sifatida shakllangan, chorvachilik turmush tarziga asoslangan xalqimiz xarakterida esa "jangovarlik ruhiyati" qaror topgan. Zardo'shtiylik ta'limotining asosiy g'oyasi – insonga xos bo'lgan poklik, ezgu niyat, pokiza tuyg'u, tuproqni muqaddas bilish, o'simlik va hayvonot dunyosini asrab-avaylash, Vatanni sevish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish singari olijanob fazilatlarini yuksak axloqiy me'yorlar va tafakkur tarzi orqali ifoda etadi. Zardo'shtiylik ta'limotida insoniyat ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalga izchil amal qilibgina farovon hayotni ta'minlashi mumkinligi haqidagi g'oyalar ilgari suriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B. 15.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998. – B. 10.
3. Abu Rayhon Beruniy. O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. 1-jild / A. Rasulev tarjimasini. – Toshkent: Fan, 1968.
4. Zaratustra. Zend-Avesta, ouvrage de Zoroastre. T. 1, partie 1 / Perevodchik Anketil-Dyuperron. – Paris: N.M. Tilliard, 1771. – P. 592.
5. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Vandidot: 3-fargard, 23. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 114.
6. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Vandidot: 3-fargard, 26–27. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 115.
7. Ashirov A.A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 56–57.
8. Бойс М. Зороастрийцы: верования и обычаи / Пер. с англ. И.М. Стеблин-Каменского. – Москва: Наука, 1988. – С. 24–25.
9. Jobborov I. O'zbeklar. – Toshkent: Sharq, 2008. – B. 35.
10. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 46.
11. Karimov I. Ma'naviyat, falsafa va hayot. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 19.
12. Karim T. Milliy tafakkur taraqqiyotidan. – Toshkent: Cho'lpon, 2003. – B. 30.
13. Mahmudov T. "Avesto" haqida // Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. – B. 374.
14. Mahmudova G.T., Arifxanova S.M. Zardushtiylik falsafasi. – Toshkent: Noshir, 2014. – B. 16.
15. Mahmudova G.T., Arifxanova S.M. Zardushtiylik falsafasi. – Toshkent: Noshir, 2014. – B. 83–84.
16. Umarzoda M. Ovesto sirlari // Jahon adabiyoti. – 1997. – № 4. – B. 199–200.
17. Homidiy H. "Avesto"dan "Shohnoma"ga. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 52.